



## THE PRINCIPLE OF FAIRNESS OF CRIME AND PUNISHMENT

**Juraev Umrbek Tuymurotovich**

Cadet of the Academy of the Ministry of Internal Affairs

E-mail: [jurayevumrbek608@gmail.com](mailto:jurayevumrbek608@gmail.com)

Phone: +998994237364

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18604976>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> February 2026

Accepted: 10<sup>th</sup> February 2026

Online: 11<sup>th</sup> February 2026

### KEYWORDS

*Principle of justice, crime, punishment, proportionality, humanity, judicial practice, Criminal Code, Constitution, individualization of punishment, rule of law.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the principle of justice of crime and punishment on the example of the legislation and practice of the Republic of Uzbekistan. The principle of justice as one of the basic principles of criminal law is covered on the basis of Constitutional norms, the Criminal Code and criminal procedural legislation. Also, the individual approach of courts in imposing punishment, mitigating and aggravating circumstances, humaneness and proportionality criteria are analyzed on the basis of scientific sources.*

## ПРИНЦИП СПРАВЕДЛИВОСТИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ

**Жураев Умрбек Туймуротович**

Курсант Академии Министерства внутренних дел

E-mail: [jurayevumrbek608@gmail.com](mailto:jurayevumrbek608@gmail.com). Телефон: +998994237364

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18604976>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> February 2026

Accepted: 10<sup>th</sup> February 2026

Online: 11<sup>th</sup> February 2026

### KEYWORDS

*Принцип справедливости, преступление, наказание, пропорциональность, гуманизм, судебная практика, Уголовный кодекс, Конституция, индивидуализация наказания, правовое государство.*

### ABSTRACT

*В данной статье принцип справедливости преступления и наказания анализируется на примере законодательства и правоприменительной практики Республики Узбекистан. Принцип справедливости как один из основных принципов уголовного права рассматривается на основе конституционных норм, Уголовного кодекса и уголовно-процессуального законодательства. Также на основе научных источников анализируются индивидуальный подход судов при назначении наказания, смягчающие и отягчающие обстоятельства, а также критерии гуманизма и пропорциональности.*

## JINOYAT VA JAZONING ADOLATLILIGI PRINSIPI

**Jo'rayev Umrbek To'ymurotovich**

Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, kursant

E-mail: [jurayevumrbek608@gmail.com](mailto:jurayevumrbek608@gmail.com)



**ARTICLE INFO**

Received: 05<sup>th</sup> February 2026

Accepted: 10<sup>th</sup> February 2026

Online: 11<sup>th</sup> February 2026

**KEYWORDS**

*Adolatlilik prinsipi, jinoyat, jazo, proporsionallik, insonparvarlik, sud amaliyoti, Jinoyat kodeksi, Konstitutsiya, jazoni individuallashtirish, huquqiy davlat.*

**ABSTRACT**

*Mazkur maqolada jinoyat va jazoning adolatlilik prinsipi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda amaliyoti misolida tahlil qilinadi. Adolatlilik prinsipi jinoyat huquqining asosiy tamoyillaridan biri sifatida Konstitutsiyaviy normalar, Jinoyat kodeksi va jinoyat-protsessual qonunchilik asosida yoritiladi. Shuningdek, jazo tayinlashda sudlarning individual yondashuvi, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar, insonparvarlik va proporsionallik mezonlari ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi.*

**Kirish**

Jinoyat va jazoning adolatlilik prinsipi huquqiy davlat barpo etish jarayonining asosiy mezonlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15-moddasiga ko'ra, davlat organlari va mansabdor shaxslar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadi [1, 8-bet]. 18-moddada esa barcha fuqarolar qonun oldida tengligi belgilangan [1, 10-bet]. Mazkur normalar jinoyat va jazo masalasida ham adolatli yondashuvni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 3-moddasida jinoyat qonunchiligining asosiy vazifalari sifatida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish ko'rsatilgan [2, 5-bet]. 7-moddada esa insonparvarlik prinsipi mustahkamlangan bo'lib, jazo inson qadr-qimmatini kamsitmasligi lozimligi belgilangan [2, 7-bet]. Adolatlilik prinsipi jinoyatga yarasha jazo tayinlash, shaxsning ayb darajasi va ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olishni anglatadi.

**Metodologiya**

Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy tahlil, sud amaliyoti materiallarini umumlashtirish hamda ilmiy adabiyotlarni o'rganish usullaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum qarorlari, Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli moddalari asosida adolatlilik prinsipi amaliy qo'llanilishi o'rganildi. Shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasi bo'yicha yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi [3, 24-bet; 4, 31-bet].

**Natijalar**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston jinoyat qonunchiligida adolatlilik prinsipi bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- jinoyat va jazoning proporsionalligi;
- jazoni individuallashtirish;
- jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olish;
- sud tomonidan ayb darajasini aniqlashda obyektivlik.

Jinoyat kodeksining 54-moddasiga muvofiq, jazo tayinlashda jinoyatning



og'irlik darajasi, sodir etilish holatlari va aybdorning shaxsi inobatga olinadi [2, 82-bet]. 55–56-moddalarda jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar batafsil ko'rsatilgan [2, 84–86-bet]. Bu normalar jazoning adolatli va individual tayinlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy sud Plenumining 2017-yil 24-avgustdagi "Sudlar tomonidan jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida sudlar har bir ish bo'yicha jazoni individuallashtirish zarurligi alohida ta'kidlangan [5, 3-bet]. Unda jazo ijtimoiy adolatni tiklash, mahkumni tuzatish va yangi jinoyatlarning oldini olish maqsadlariga xizmat qilishi kerakligi qayd etilgan.

### **Tahlil va muhokama**

Adolatlilik prinsipi jinoyat huquqida proporsionallik mezon bilan chambarchas bog'liq. Proporsionallik jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi bilan jazo og'irligi o'rtasidagi mutanosiblikni anglatadi [6, 41-bet]. Mazkur tamoyil jinoyat huquqining nazariy asoslarida ham, amaliy sud faoliyatida ham markaziy o'rin tutadi. Jinoyat va jazo o'rtasidagi muvozanat buzilgan taqdirda, ya'ni jinoyatga nisbatan haddan tashqari og'ir yoki aksincha, haddan ziyod yengil jazo tayinlangan hollarda, adolatlilik prinsipi buziladi va bu jamiyatda huquqiy ong va adolat tuyg'usiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra uncha og'ir bo'lmagan, o'rtacha og'ir, og'ir va o'ta og'ir toifalarga ajratilgan (15-modda) [2, 20-bet]. Ushbu tasnif jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilarini baholashda mezon bo'lib xizmat qiladi. Jinoyatning toifalanishi sud

tomonidan jazo turini va miqdorini belgilashda asosiy yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Shu bois, adolatlilik prinsipi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish bosqichidayoq namoyon bo'ladi.

Jazo tayinlash jarayonida sud Jinoyat kodeksining 54-moddasiga muvofiq jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, sodir etilgan holatlarni hamda aybdorning shaxsini hisobga olishi shart [2, 82-bet]. Bu norma jazoni individuallashtirishning normativ asosidir. Jazoni individuallashtirish – adolatlilik prinsipining amaliy ifodasi bo'lib, har bir shaxsga uning aybi, harakati va shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda jazo tayinlanishini anglatadi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, jazoni individuallashtirish jinoyat huquqining insonparvarlik mohiyatini ochib beradi [7, 58-bet]. Insonparvarlik prinsipi jinoyat sodir etgan shaxsni faqat jazolash emas, balki uni tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish maqsadini ko'zda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, shartli hukm qilish, jazoni yengilroq turiga almashtirish, jazoning bir qismini o'tashdan ozod etish kabi institutlar adolatlilik prinsipi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 24-avgustdagi qarorida sudlar jazoni tayinlashda jinoyatning og'irligi bilan bir qatorda aybdorning shaxsiga oid ma'lumotlarni ham chuqur o'rganishi lozimligi qayd etilgan [5, 3-bet]. Xususan, sudlanuvchining ilgari sudlanganligi yoki sudlanmaganligi, ijtimoiy ahvoli, oilaviy sharoiti, qilmishiga munosabati kabi omillar e'tiborga olinishi kerakligi belgilangan. Bu talablar jazoni formal emas, balki mazmunan adolatli tayinlashga xizmat qiladi.



Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar instituti ham adolatlilik prinsipining muhim mexanizmlaridan biridir. Jinoyat kodeksining 55–56-moddalarida ushbu holatlar sanab o'tilgan [2, 84–86-bet]. Masalan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, zarar qoplash, aybini tan olish jazoni yengillashtiruvchi omillar sifatida ko'rsatilgan. Aksincha, jinoyatni takror sodir etish, mast holda sodir etish yoki voyaga yetmaganlarni jalb qilish og'irlashtiruvchi holatlar sirasiga kiradi. Bu tizim jazo tayinlashda differensial yondashuvni ta'minlaydi.

Proporsionallik mezoni xalqaro huquqiy standartlarda ham e'tirof etilgan bo'lib, u inson huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liqdir [11, 52-bet]. Jazoning haddan tashqari og'irligi inson qadr-qimmatini kamsitish xavfini tug'dirishi mumkin. Shu sababli Jinoyat kodeksining 7-moddasida jazo insonparvarlik tamoyiliga asoslanishi, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi belgilangan [2, 7-bet].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistik ma'lumotlariga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ulushi ortib bormoqda [8, 12-bet]. Bu tendensiya jinoyat siyosatining liberallasuvi va insonparvarlik yo'nalishining kuchayganini ko'rsatadi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi eng og'ir choralar qatoriga kiradi va uni qo'llashda alohida ehtiyotkorlik talab etiladi. Shu bois, sudlar tomonidan jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari kabi alternativ jazolarni qo'llash adolatlilik prinsipining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda ham adolatlilik prinsipi mustahkamlangan. Jinoyat-protsessual kodeksining 11-moddasida sudlovning qonuniyligi va adolatliligi ta'minlanishi lozimligi ko'rsatilgan [9, 6-bet]. Aybsizlik prezumpsiyasi (23-modda) esa shaxs aybi qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan isbotlanmaguncha aybdor deb hisoblanmasligini belgilaydi [9, 15-bet]. Ushbu kafolatlar jinoyat va jazoning adolatliligini ta'minlashning protsessual asosidir.

Adolatlilik prinsipi jinoyatni kvalifikatsiya qilish bosqichida ham muhim ahamiyatga ega. Jinoyat tarkibi elementlarini noto'g'ri baholash yoki jinoyatni og'irroq modda bilan kvalifikatsiya qilish natijasida jazo adolatsiz bo'lishi mumkin. Shu bois, sudlar va tergov organlari tomonidan normativ hujjatlarni aniq va to'g'ri qo'llash adolatlilikni ta'minlashning zarur sharti hisoblanadi [3, 24-bet].

O'zbekiston huquqshunos olimlari adolatlilik prinsipini jinoyat siyosatining demokratik mohiyatini belgilovchi mezon sifatida baholaydilar [10, 73-bet]. Bu prinsip faqat jazoni tayinlash bilan cheklanmay, jazoni ijro etish bosqichida ham o'z aksini topadi. Masalan, jazoni o'tash sharoitlari, mahkumlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalari ham adolatlilik mezoni bilan baholanadi.

Shuningdek, adolatlilik prinsipi ijtimoiy adolat tushunchasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Jinoyat sodir etilganidan so'ng jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklash, yetkazilgan zararni qoplash va jamiyatda huquqiy tartibni ta'minlash adolatlilikning muhim jihatlaridan biridir. Shu ma'noda, jinoyat-



protsessual qonunchilikda fuqaroviy da'vo instituti mavjud bo'lib, u jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararni undirish imkonini beradi [9, 210-bet].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston jinoyat qonunchiligida adolatlilik prinsipi normativ darajada mustahkamlangan bo'lib, sud amaliyotida ham izchil qo'llanilmoqda. Biroq, adolatlilikni ta'minlash doimiy ravishda qonunchilikni takomillashtirish, sudlar malakasini oshirish va inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishni talab etadi.

#### **Xulosa**

Jinoyat va jazoning adolatliligi prinsipi O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. U Konstitutsiyaviy normalar, Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksida o'z ifodasini topgan. Sud amaliyoti ham jazo tayinlashda individuallashtirish va proporsionallik mezonlariga qat'iy rioya etilishini talab etadi.

Adolatlilik prinsipi huquqiy davlatni mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim huquqiy kafolati hisoblanadi.

#### **References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2023. – 8–10-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2023. – 5, 7, 20, 82–86-betlar.
3. Rustamboyev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. – T.: TDYU, 2020. – 24-bet.
4. Yuldashev J.A. Jinoyat huquqi nazariyasi. – T.: Fan, 2019. – 31-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum qarori, 24.08.2017. – 3-bet.
6. Axmedov A.K. Jinoyat va jazo proporsionalligi masalalari. – T.: Yuridik adabiyotlar, 2018. – 41-bet.
7. To'xtashev Q.R. Jinoyat siyosatida insonparvarlik tamoyili. – T.: TDYU, 2021. – 58-bet.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi statistik ma'lumotlari. – T., 2022. – 12-bet.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2023. – 6, 15-betlar.
10. Karimov B.R. Jinoyat huquqining konstitutsiyaviy asoslari. – T.: Fan, 2017. – 73-bet.
11. Saidov A.X. Huquqiy davlat va sud-huquq islohotlari. – T.: Adolat, 2018. – 52-bet.
12. Ismoilov Sh.T. Jazoni individuallashtirish nazariyasi. – T.: TDYU, 2020. – 64-bet.